



## KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR UCHUN MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALAR FAOLIYATI

**Rajabova Halima Sharifboyevna**

Kosonsoy tumanidagi alohida ta'lim ehtiyojlari bolgan Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 45-sonli Nurli maskan maktab internatining boshlangich sinf oqituvchisi  
<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-10>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> January 2023  
Accepted: 04<sup>th</sup> February 2023  
Online: 05<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

Korreksiyalash,  
kompensasiyalash, ko'rish,  
ko'rish o'tkirligi, ko'z harakat  
funksiyalari, biokulyar ko'rish,  
stereoskopik ko'rish,  
tiflopedagog, tarbiyachi.

### ABSTRACT

*Maxsus muassasalar hozirgi zamon komsepsiyasida nogiron jumladan ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim tizimiga ma'lum o'zgarishlar kiritilgan va ularni amalga oshirish ishlari olib borilmoqda. Zamonaviy maxsus ta'lim standartlariga asosan fanlar bo'yicha o'quv dasturlar tuzilib chop etilmoqda. Ularga mos ravishda mashg'ulotlik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash ishlari jadal suratlarda olib borilmoqda. Ushbu maqolada ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'qitish, tarbiyalash usullari, qilinishi lozim bo'lgan ishlar to'grisida bayon qilingan.*

Maktabgacha tarbiya tizimi davlat, ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, muhim ijtimoiy masalalarni hal qiladi: ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama kamol tptirish; ko'r va zaif ko'ruvchilar nuqsonli rivojlanishini oldini olish; korreksiyalash va ularning sog'ligini himoyalash va mustahkamlash; Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va maxsus ta'lim berishda oilaga ko'maklashish maqsadida maxsus va oilaviy M.T.M. qoshida ochilgan maktabgacha tarbiya muassasalari tashkil etilgan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga maxsus M.T.M larda maqsadli ta'lim va tarbiya berish jarayonida ularga normal psixik rivojlanishni ta'minlash, ilk bolalik davridagi noto'g'ri tarbiya natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash, kompensasiyalash mumkin. O'zbekiston Respublikasida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalar O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2010 yil 18iyundagi 117-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Qarorga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasalarda ko'rishda og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar-ko'zi ojizlar, ambliopiya va g'ilaylik, zaif ko'ruvchilar ta'lim tarbiya olishlari mo'ljallangan. Ta'lim muassasalarga 2-3 yoshdan, har bir guruhga 6-8nafardan qabul qilinishi mo'ljallangan.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun bog'chalar faoliyatida 4 asosiy vazifani belgilash mumkin. Ularning bajarilishi va faqat bolalarning umumta'lim dasturlarini o'zlashtirishga imkoniyatlarini, balki rivojlanishdagi ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash va kompensasiyalashni ta'minlaydi.

1. Qisman ko'radigan va zaif bolalarda saqlangan ko'rish funksiyalarini rivojlantirish, ambliopiya va g'ilay bolalarni ularni normagacha tibbiy va pedagogik vositalar bilan tiklash.



2. Bolalarning rivojlanishi o'quv dasturni o'zlashtirish uchun ularning psixik – jismoniy rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda qulay sharoitlar yaratish.

3. Bola hayotining dastlabki oy yillaridagi noto'g'ri tarbiya natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash

4. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim, o'yin, mehnat, faoliyati kompensator usullarini shakllantirish.

Maxsus vazifalarni hal etishda har bir mutaxassis vrach oftolog, tiflopedagog, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bog'chasi tarbiyachisining roli garchi o'zaro bog'liq va o'zaro bog'langan bo'lsada, ular ko'p qirralidir.

**Birinchi vazifa** . Qisman ko'radigan va ko'zi ojiz bolalarda saqlangan ko'rish funksiyalarini rivojlantirish, ambliopiya va g'ilyalik bilan og'riganda ularni meyoragacha tiklash.

Bu vazifani hal etishda yetakchi o'rinni oftologlar egallaydi. Apparat davolash metodi turli toifadagi bolalarda qoldiq ko'rishni rivojlanishiga ta'sir etish imkonini beradi.

Shuningdek:

- ko'rish o'tkirligi
- ko'z harakat funksiyalari
- biokulyar ko'rish
- stereoskopik ko'rish
- chuqurligi kabi muhim ko'rish funksiyalari rivojlanadi

Ish natijalari ko'rsatadiki, qoldiq ko'rish funksiyasini rivojlantirish va uni meyoragacha tiklash borasidagi muvaffaqiyatlar uncha katta emas. Ongli, maqsadli idrok ko'rish, tahlil qilish, farqlashni rivojlantiradi. Bu kabi pedagogik korreksiya faoliyati ko'rish funksiyalari tiklash va mustahkamlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bu faoliyat guruhda tiflopedagog, tarbiyachi, vrach hamda hamshira amalga oshiradi.

#### **Tarbiyachining vazifalari**

- ko'rish yuklamalari meyorigi gigiyenasiga rioya etish;
- bolani tanish va yangi vaziyatlarda ko'rishdan foydalanishga o'rgatish.

Bolalarda faoliyatning barcha ko'rinishlarida va barcha rejim jarayonlarida ko'rish diqqatini rag'batlantirish yo'llari:

- ommaviy bolalar bog'chasi dasturini K.N.B. bolalar uchun moslashtirish;
- mashg'ulotlarda puhta yo'l tayyorlash;
- ehtimoliy ikkilamchi nuqsonlarni hisobga olgan holda didaktik o'yinlarni to'g'ri tanlan;
- talabga muvofiq ko'rgazmali qurollar tanlash.

Ko'rish diqqatini rag'batlantirish turlicha bo'lishi mumkin:

- faoliyatning rang-barang turlariga qiziqarli tarbiyalash;
- bolalarning obekt va boshqa vositalarini yaxlit ko'rib chiqishga o'rgatish.

Tarbiyachi, tiflopedagog, hamshira, vrach, oftologlar tavsiyalarni bajara borib bolalarning ko'rish funksiyalarini tiklashga bevosita ta'sir etadi.

Ko'rish funksiyalarining bevosita rivojlanishida yetakchi rolni tiflopedagog bajaradi. Bolaning individual xususiyatlari, ko'rish nuqsoni darajasi va karakterini hisobga olib tiflopedagog maktabgacha yoshdagi bolalarni tafakkurni analitik-sintetik faoliyatga asoslanib predmetlar dunyosi maqsadli idrok etishga o'rgatishga chaqiriladi. Bolalarning tashqi dunyo predmetlari



sensor etalonlari (rangi, shakli kattaligi) bilan tanishlari taxlil qiluvchi ko'rish idroki rivojlanishning yuqori darajasiga erishishi shartdir.

**Ikkinchi vazifa.** Bolalarning rivojlanishi o'quv dasturini o'zlashtirish uchun ularning psixik-jismoniy rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda qulay sharoitlar yaratish.

Bola faolligi o'qish, o'yin, mehnat, mashg'ulotlar va shu kabi faoliyat turlarida vujudga keladi. Ular qanday bilish jarayonida jiddiy o'rin tutadi. Bolaning istalgan faoliyati va umuman rivojlanishning hal qiluvchi shartlaridan sanaladi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish:

1. Sog'lom bola muhit bilan tabiiy muloqotda o'rganadigan narsaga maxsus o'qitish.
2. Faoliyatning barcha turlarida qatnashish va o'z vaqtida yordam ko'rsatish demakdir.

Bu vazifani hal etishda M.T.M jamoasining uyushqoqlik bilan ishlashi muhimdir.

**MTM ma'muriyati:**

1. Jamoaning har bir a'zosini ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasidagi o'z o'rnini va rolini tushunib yetishga yo'llaydi.
2. Korreksion-pedagogik faoliyatni ta'minlaydi.
3. Gigiyenik meyorlar (yoritishga) rioya etilishni kuzatadi.
4. Yangidan bolalarni qabul qilishga ota-onalarni bilan ishlaydi.
5. Oftalmologik jihozlarni harid qilish va holatini nazorat qiladi.

**Tibbiy xodimlar.**

1. Qattiq jarahatlangan ko'rish sistemasi ishini yengillashtiruvchi davolash, profilaktika va gigiyenik tadbirlar kompleksi uchun sharoit yaratadi.
2. Bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazadi.

**Pedagogik jamoa:**

1. Bolalarning potensial imkoniyatlariga tayanadi.
2. Maxsus metodik usul va vositalarni qo'llaydi.
3. Bolaning butun rivojlanishini boshqaradi va ayni paytda ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalaydi.
4. Ota-onalar bilan ishlaydi, ularda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga, uning nuqsoniga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantiradi.

**Uchinchi vazifa.** Bola hayotning dastlabki oy va yillaridagi noto'g'ri va rivojlanish natijasida yuzaga kelgan ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash.

Normal bolalarda hayotning dastlabki onlarida ko'rish reaksiyalari shakllanadi. Yorug'likka qorachig' reaksiyasi yuzaga keladi.

- bir necha haftadan so'ng qorachig' qisqarish, ankomadasiya va konvergensiya o'rtasida aloqa uzatiladi.
- nigoh funksiyasi rivojlanadi.

Ko'rish analizatori patologik rivojlanishda:

- elementar reaksiyalar rivoji kechikadi;
- harakat buziladi, bola nigohini boshqara olmaydi;
- qo'l, ko'z polisensor asos o'zaro birligi buziladi.

Harakat bor, lekin nigoh bilan finsasiyalash yo'q, natijada predmetni kuzatish ham yo'lmaydi. Bundan ikkilamchi nuqsonlar yuzaga keladi. Ular mexanizmi tushunarli: miyada sensor



markazdan biri (ko'rish) yetarlicha rivojlanmagani va harakat jarayonlari buzilgani natijasida psixik jarayonlar buzilishi jismoniy sohadagi buzilishlariga olib keladi.

Maxsus korreksion vazifalar, korreksiyalar ishi mazmuni va metodlari bolalar tarkibi, ularning ko'rishdagi nuqsoni, dastur talablari va yosh xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Eng avvalo ko'rish darajasi nuqsoni hamda psixik rivojlanish darajasi orasidagi bog'lanishni belgilash lozim bo'ladi.

Bu esa bolalarni rivojlanish asboblari va ko'rish nuqsoni sabablarini aniqlashga yordam beradi.

**To'rtinchi vazifa.** Ko'rishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim, o'yin, mehnat faoliyati usullarini shakllantirish.

Mazkur maktabgacha yoshda bolaning bilishga ehtiyoji, qiziqishi, faolligi, maqsadli harakatlanishi odati shakllanganligi bolalarga maktabda kompensator metodik usullarni mashg'ulotning predmet mazmuniga muvofiq mustahkamlash va rivojlantirish imkonini beradi.

Tiflopedagogik va tarbiyachining bu muhim vazifani hal etishdagi ishtroki ularning faoliyati, tashkiliy shakllari va mazmuniga bog'liq, tiflopedagog yakka tartibda bu kichik guruhdagi mashg'ulotlarni bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda eng avvalo faoliyatning u yoki bu usuli to'g'risida dastlabki bilimlarni shakllantiradi.

Tarbiyachiga bu usullarni mustahkamlash, mashq qildirish, bola uchun yangi vaziyatlarga kiritish, shuningdek shakllantirilayotgan usullar samaradorligini tekshirish uchun keng imkoniyatlar beradi.

### References:

1. Ташпулатов, Ф., & Хамраева, З. (2022). ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(4), 10-17.
2. Farhad, T., & Khamraeva, Z. B. (2022, April). PROBLEMS AND SOLUTIONS IN CHILDREN'S FOOTBALL. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 1, pp. 45-51).
3. Khamrayeva, Z. B. (2022). Physical Education of Students in Modern Conditions. *European Journal of Business Startups and Open Society*, 2(2), 29-32.
4. Khamraeva, Z. B. (2022). Planning Annual Training for Runners Running Over Obstacles. *Eurasian Scientific Herald*, 8, 229-232.
5. Khamraeva, Z. B. (2022). THE ORIGIN OF THE ATHLETICS SPORTS TOUR. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 3, 181-184.
6. Khamraeva, Z. B. (2022). Application of Multi-Year Training Works in Training Athletics in Training Cycles. *Global Scientific Review*, 3, 33-36.
7. Bahodirovna, H. Z. (2022). SPECIFIC FEATURES OF ATHLETICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(4), 1-5.
8. Bahodirovna, K. Z. (2022). Activities of physical education teachers practical-pedagogical fundamentals. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 1200-1207.
9. Bahodirovna, H. Z. (2022). Development of Sports in the Republic of Uzbekistan. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 6, 318-320.



10. Bahodirovna, H. Z. (2022). Age Dynamics and Adaptive Changes in Children Aged 10-12 Years Under the Influence of Athletics. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 6, 310-312.
11. Khamrayeva, Z. B. Current Issues of Forecasting in Physical Education and Sports Today.
12. Toshboyeva, M. B., & Khamrayeva, Z. B. (2021). Development and Public Policy.
13. Ciocan Vasile-Cătălin<sup>1</sup>, "Vasile Alecsandri" University of Bacau, 157, Calea Marasesti, 600115, Romania, STUDY REGARDING THE USING OF BASKETBALL IN SEVENTH GRADE, G Y M N A S I U M Scientific Journal of Education, Sports, and Health. No. 1, Vol. XV /2014,
14. Karimov, F. X. (2022). Scientific and Methodological Bases of Normalization of Loads in Physical Education and Mass Sports-Health Training. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 2(2), 24-28.
15. METHODOLOGY OF COMPREHENSIVE EVALUATION OF GAME ACTIVITY EFFICIENCY OF HANDBALL PLAYERS. Tashpulatov Farkhad Alisherovich, *ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES*, 2023/1, 96-104, <https://doi.org/10.47390/1342V3I1Y2023N10>.
16. IMPROVING PHYSICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN BY TEACHING THEM TO SWIM FROM INFANCY, Khamrayeva Zuhro Bahodirovna, *ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES*, 2023/1, 11-119, <https://doi.org/10.47390/1342V3I1Y2023N12>
17. Ташпулатов Ф., Хамраева З. ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 10-17.
18. Farhad T., Khamraeva Z. B. PROBLEMS AND SOLUTIONS IN CHILDREN'S FOOTBALL //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 45-51.
19. Tashpulatov F. A., Shermatov G. K. Wrestling–The Honor of Uzbek Nation //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Т. 8. – С. 205-208.
20. Alisherovich T. F. Sog'lom turmush tarzini shakillantirishda jismoniy madaniyatning inson hayotidagi roli //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 187-190.
21. Khamrayeva Z. B. Physical Education of Students in Modern Conditions //European Journal of Business Startups and Open Society. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 29-32.
22. Shermatov G. K. Classification of Methods of Sports Wrestling, System //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 39-42.
23. Мухаметов А.М. (2021) Methodology for Normalizing Workload in Health Classes, *European Journal of Life Safety and Stability*, <http://www.ejlss.indexedresearch.org/>
24. Мухаметов А.М. (2021) Stages and Methods of Teaching Children to Play in Badminton *International Journal of Development and Public Policy* <http://www.openaccessjournals.eu/>
25. Шерматов Ғ.Қ. (2021) DYNAMICS OF PHYSICAL DEVELOPMENT OF STUDENTS WITH ONE AND TWO TIME COMPULSORY LESSONS, *World Economics & Finance Bulletin (WEFB)* <https://www.scholarexpress.net/>
26. Мухамметов, А.М. (2022). Научно-методические основы нормирования нагрузок в физкультурно-спортивном здравоохранении. *Евразийский научный вестник*, 8, 194-197.



27. Alisherovich, T. F., & Toshboyeva, M. B. Innovative Pedagogical Activity: Content and Structure.